

**KLASTER TA’LIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA XALQARO BAHOLASH
DASTURLARINING O’RNI**

Qadirova Ulfatxon Mamataliyevna
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Qirg’iz tili ta’limi kafedrası katta o’qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21217990>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim klasterlari faoliyatini takomillashtirish va ularni zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati xususida fikrlar bayon etiladi. Ta’lim klasterlari faoliyatini takomillashtirish va ularni zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilishda xalqaro baholash dasturlari muhim strategik ahamiyatga ega. Xususan, PISA, TIMSS, PIRLS va TALIS kabi xalqaro baholash dasturlarining ta’lim sifati monitoringidagi o’rni, ularning klaster tizimida ta’lim samaradorligini oshirishga qo’shayotgan hissi hamda o’quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro baholash natijalaridan foydalanish orqali ta’lim klasterlarida boshqaruv, metodik xizmat va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim klasteri, transformatsiya, xalqaro baholash dasturlari, PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, ta’lim sifati, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion rivojlanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования деятельности образовательных кластеров и их трансформации в соответствии с современными требованиями. Особое внимание уделяется значению международных программ оценки. Такие программы, как PISA, TIMSS, PIRLS и TALIS, обладают важным стратегическим значением для мониторинга качества образования, повышения эффективности обучения в кластерной системе и развития функциональной грамотности учащихся. В статье также анализируются вопросы развития управленческой, методической и инновационной деятельности в образовательных кластерах на основе использования результатов международных оценок.

Ключевые слова: образовательный кластер, трансформация, международные программы оценки, PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, качество образования, компетентностный подход, инновационное развитие.

Abstract. This article discusses the improvement of educational cluster activities and their transformation in line with modern requirements. The significance of international assessment programs is highlighted as a key strategic factor. In particular, programs such as PISA, TIMSS, PIRLS and TALIS play a crucial role in monitoring the quality of education, enhancing the effectiveness of teaching within cluster systems, and developing students' functional literacy. The paper also examines how the use of international assessment results can contribute to the development of management, methodological services and innovative activities within educational clusters.

Keywords: educational cluster, transformation, international assessment programs, PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, education quality, competency-based approach, innovative development.

Kirish. Hozirgi taraqqiyot etayotgan davrda talabalarga ta’lim – tarbiya berish sifatini oshirish yo’llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning ortga surib



bo'lmaydigan dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Shu sababli dunyo mamlakatlari ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash va takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa biz pedagoglarga zamonaviy jamiyat uchun nafaqat bilimli, balki tanqidiy fikrlay oladigan, muammolarni hal etishga qodir, kreativ va kommunikativ kompetensiyalarga ega shaxslarni tayyorlashdek muhim vazifalarni yuklaydi.

Davlatimiz rahbari tomonidan Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 30-sentyabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan muloqot shaklidagi videoselektor yig'ilishining 41-sonli bayoni 13-bandida belgilangan maktabgacha, umumiy o'rta, professional, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimida yagona uzviy zanjirni yo'lga qo'yish uchun “Pedagogik ta'lim klasterini tashkil etish”ga doir topshiriq ijrosi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 19-dekabrda 49-q/q, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 19-dekabrda 42-q/q, Andijon viloyati hokimligining 2024-yil 19-dekabrda 11/37-1270-q/q sonli qarori “Pedagogik ta'lim klasterini tashkil etish to'g'risida” gi qo'shma qarori talablari asosida Andijon davlat pedagogika instituti tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar siyosatini amalga oshirish, ta'lim sifatini oshirish va talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yo'lida talaba-yoshlarning taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning g'oya va loyihalarini amaliyotga tatbiq etishga ko'maklashish, kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularga to'g'ri yo'nalish berish borasida Institut rektori Baxtiyor Mahmudjonovich Rasulovning xizmatlari katta. Mamlakatimizda ta'lim sifatini baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilayotgan bir paytda Andijon davlat pedagogika unstitutida ham milliy reyting tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda oliygohning ilmiy faoliyati, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi va professor-o'qituvchilar salohiyati hisobga olinadi. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan turli indikatorlar asosida baholash olib boriladi. Shu bilan birga raqamli ta'lim platformalari orqali talabalar bilimni avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida baholash amaliyoti rivojlanmoqda. Pedagogik ta'lim klasteri va uning amaliyotga tatbiqi muammosi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida keyingi yillarda o'rganilmoqda. O'zbekistonda ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida klaster yondashuvi keng joriy etilmoqda. Ta'lim klasterlari maktab, oliy ta'lim muassasasi, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, uzluksiz ta'lim tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda xalqaro baholash dasturlari ta'lim sifatini aniqlash, mavjud muammolarni belgilash va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Klaster tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarga nazariy bilimlar bilan birga amaliy tajribaga ega bo'lish imkonini yaratadi. Ta'lim jarayoniga korxonalar, maktabgacha ta'lim muassasalari va o'quv markazlari jalb etiladi. Bu tizimning ahamiyatli jihati shundan iboratki, kasbiy ta'lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Talabalar o'z sohasi bo'yicha ish beruvchilar bilan bog'lanib, ish o'rni topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Oliy ta'lim



muassasalari va ilmiy markazlar klaster tizimi orqali innivatsion yondashuvlar va tadqiqotlar bilan shug’ullanadi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ta’lim jarayoniga joriy etiladi hamda ta’lim muassasalari o’rtasida hamkorlik kuchayadi. Oliy o’quv yurtlari, kollejlari va kasb-hunar markazlari birgalikda ishlash orqali samaradorlikni oshiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalari, oliy ta’lim muassasalari va mahalliy hokimiyat organlari hamkorlikda ishlaydi. Tarbiyachilar va o’qituvchilarning malakasini oshirish uchun turli platformalar, treninglar va kurslar tashkil etiladi. Shu bilan birga o’qituvchilar va o’quvchilar uchun yangi metodikalar va o’quv dasturlarini yaratish imkoniyati kengayadi.

Ta’lim klasteri deganda, ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa manfaatdor subyektlarning o’zaro integratsiyasi asosida faoliyat yurituvchi tizim tushuniladi. Klaster yondashuvi ta’lim sifatini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda ta’lim, fan va amaliyot integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta’lim klasterlarining transformatsiyasi ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash, o’qitish metodlarini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ta’lim natijalarini xalqaro standartlar asosida baholash hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish kabi yo’nalishlarni qamrab oladi. Mazkur jarayonlarning muvaffaqiyati ko’p jihatdan xalqaro baholash dasturlarining natijalaridan samarali foydalanishga bog’liq.

Ta’lim sifatini monitoring qilish va baholash usullarini yanada takomillashtirish orqali ta’lim tizimining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Bu borada innovatsion texnologiyalar, ilg’or baholash metodikalarini joriy etish va xalqaro tajribalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro baholash dasturlari ta’lim sifati va samaradorligini xalqaro mezonlar asosida o’rganishga xizmat qiladi. Ular o’quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki real hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish ko’nikmalarini ham baholaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish uchun uning sifatini doimiy monitoring qilish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Eng mashhur xalqaro baholash dasturlari quyidagilar hisoblanadi: **PISA** (Programme for International Student Assessment) dasturi 15 yoshli o’quvchilarning o’qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo’yicha bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo’llash qobiliyatini baholaydi. PISA natijalari ta’lim klasterlari uchun o’quv dasturlarining samaradorligini aniqlash, xalqaro tajribalarni o’rganish, funksional savodxonlik darajasini baholash va ta’lim sifatini oshirish bo’yicha strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatlarni yaratadi. **TIMSS** (Trends in International Mathematics and Science Study) matematika va tabiiy fanlar bo’yicha o’quvchilarning tayyorgarlik darajasini baholaydi. Ushbu dastur natijalari klasterlarda STEM ta’limini rivojlantirish, zamonaviy laboratoriyalar faoliyatini takomillashtirish va innovatsion metodlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. **PIRLS** (Progress in International Reading Literacy Study) boshlang’ich sinf o’quvchilarining matnni tushunish va tahlil qilish ko’nikmalarini baholaydi. PIRLS natijalari asosida klasterlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, o’qish kompetensiyalarini shakllantirish va boshlang’ich ta’lim sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi. **TALIS** (Teaching and Learning International Survey) pedagoglarning kasbiy faoliyati, o’qitish usullari va maktab boshqaruvi bo’yicha ma’lumotlarni yig’adi. Mazkur dastur natijalari klasterlarda pedagoglarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. **ICILS** (International Computer and Information Literacy Study) — o’quvchilarning kompyuter va axborot savodxonligini baholovchi xalqaro tadqiqot dasturidir. U International Association

for the Evaluation of Educational Achievement tomonidan tashkil etiladi va asosan 8-sinf o’quvchilarining raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko’nikmalarini o’rganadi. ICILS kabi dasturlar natijalari klasterlarda raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, elektron ta’lim resurslarini joriy etish va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga turtki beradi.

Klaster tarkibidagi maktablar, kollejlari, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalari o’z faoliyatini xalqaro standartlar bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu esa mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Xalqaro baholash dasturlari faqat nazariy bilimlarni emas, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot va ijodkorlik kabi XXI asr ko’nikmalarini ham baholaydi. Shu sababli klasterlar o’quv dasturlarini zamonaviy kompetensiyalarga yo’naltiradi. Baholash natijalari o’qituvchilarning metodik tayyorgarligi va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi. Natijada klasterlarda maqsadli malaka oshirish dasturlari tashkil etiladi. Xalqaro tadqiqotlar natijalari asosida fan dasturlari, darsliklar va o’quv-metodik materiallar qayta ko’rib chiqiladi. Bu bilan ta’lim mazmunining mehnat bozori va global talablar bilan uyg’unlashuviga erishiladi. Ta’lim klasterlari xalqaro baholash natijalaridan strategik rejalashtirishda va monitoring hamda ichki sifat nazorati tizimini takomillashtirishda foydalanishi mumkin.

Transformatsiya jarayonidagi asosiy yo’nalishlar bu, ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy tizimini yaratish, o’quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, raqamli ta’lim muhitini shakllantirish, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda natijaga yo’naltirilgan boshqaruv modelini rivojlantirish hisoblanadi. Xalqaro baholash dasturlarining klaster ta’limini transformatsiya qilishdagi o’rni ta’lim sifatini monitoring qilish, kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish, pedagoglar malakasini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirishdan iborat bo’lib, ta’lim sifatini monitoring qilish orqali olingan natijalar asosida kuchli va zaif tomonlar tahlil qilinib, rivojlanish strategiyalari ishlab chiqiladi. Xalqaro baholash dasturlari klasterlarda ta’lim sifati darajasini aniqlash imkonini beradi. An’anaviy ta’lim ko’proq bilimlarni yodlashga yo’naltirilgan bo’lsa, xalqaro baholash dasturlari bilimlarni amaliyotda qo’llashga urg’u beradi. Bu esa klasterlarda kompetensiyaviy ta’lim modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Baholash natijalari o’qituvchilarning metodik tayyorgarligi va kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Natijada malaka oshirish kurslari va metodik xizmatlar faoliyati takomillashtiriladi. Xalqaro baholash natijalari asosida yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar va innovatsion metodlar joriy etiladi. Bu esa klasterlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Klaster rahbariyati xalqaro baholash natijalaridan strategik rejalashtirish vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Bu ta’lim muassasalari faoliyatini natijadorlik asosida boshqarishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida so’nggi yillarda xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo’yicha keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimimizning PISA, TIMSS va PIRLS dasturlaridagi ishtiroki ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Natijada kelgusida ta’lim klasterlarida xalqaro baholash indikatorlarini o’quv jarayoniga integratsiya qilish, o’quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish, xalqaro tajriba asosida ta’lim dasturlarini takomillashtirish va pedagoglarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida namoyon bo’ladi.



Xulosa. Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, ta’lim klasterlarini transformatsiya qilish jarayonida xalqaro baholash dasturlari muhim strategik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim sifatini xalqaro darajada baholash, o’quv jarayonini modernizatsiya qilish, pedagoglar salohiyatini oshirish va klasterlarni innovatsion rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ta’lim tizimi global raqobatbardoshlikka erishib, zamonaviy iqtisodiyot uchun malakali va kompetent kadrlar tayyorlash imkoniyatlari kengayadi. PISA, TIMSS, PIRLS va TALIS kabi dasturlar ta’lim sifatini obyektiv baholash, o’quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, pedagoglar malakasini oshirish hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga xizmat qilmoqda. Shu bois xalqaro baholash natijalaridan samarali foydalanish ta’lim klasterlarining barqaror rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu tizim kelajakda ta’lim sifatini oshirishga va talabalarning kasbiy rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bugungi kunda eng zamonaviy ilm-fan va texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari kun tartibiga qo’yilgan bo’lib, ushbu texnologiyalardan foydalanish ham innovatsion bilimlarni talab qiladi. Shu jihatdan olganda, ta’lim klasterlari faoliyatini takomillashtirish va ularni zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati katta. Xalqaro baholash dasturlari kelajakda ta’lim sifatini oshirishga va talabalarning kasbiy rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bu dasturlar ta’lim klasterlari faoliyatini takomillashtirishning muhim instrumenti bo’lib, ular ta’lim sifatini obyektiv baholash, boshqaruv samaradorligini oshirish va ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilishga xizmat qiladi. Ushbu dasturlar natijalaridan samarali foydalanish ta’lim klasterlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" (PQ-489-son, 2022 yil 24 dekabr). (Klaster ichidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga solish uchun asos).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (PQ-200-son, 2023 yil 11 iyul).
3. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari. / Pedagogika fanlari doktori (Doktor of Science) - 2020. – B. 277.
4. О.П.Филатова Процесс формирования методической компетенции педагогов при освоении аудиовизуальных технологий обучения. Научно-теоретический журнал Выпуск. 1(14).2013
5. https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0062/62_i_20250212_232247_5.30.pdf